

ADABIYOTDA OBRAZ VA BADIYLIK TUSHUNCHASI.

8-82-(82-3)-32

Sharipov Ma'mur Mansurovich,

Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası o'qituvchisi,

Buxoro davlat universiteti

Orcid 0000-0002-4395-7019

m.m.sharipov1@buxdu.uz

Abstrakt. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda qahramonlarning real hayotdagi shaxslarni alohida obraz qiyofasida yaratilishi, ayni paytda, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati haqida so'z yuritiladi. Obraz (timsol) tushunchasining 2 xil: keng va tor ma'nolari haqida muhokama etiladi.

Kalit so'zlar. Obraz, badiylik, poetika, tarixiy kontekst, drama, subyektiv poeziya.

Понятие образа и художественности в литературе.

Абстракт. В данной статье говорится о создании персонажей в реальной жизни в виде отдельного образа персонажей художественной литературы, и в то же время картины, обладающей характеристиками художественного обобщения и силой эмоционального воздействия. Обсуждаются два разных значения понятия образа (символа): широкое и узкое.

Ключевые слова. Образ, художественность, поэтика, исторический контекст, драма, субъективная поэзия.

Concept of image and artistry in literature.

Abstract. This article talks about the creation of characters in real life in the form of a separate image of characters in fiction, and at the same time, a picture that has the characteristics of artistic generalization and the power of emotional impact.

Two different meanings of the concept of image (symbol): broad and narrow are discussed.

Key words. Image, artistry, poetics, historical context, drama, subjective poetry.

KIRISH.

Badiiy adabiyotda qahramonlarning real hayotdagi shaxslarni alohida obraz qiyofasida yaratilishi, ayni paytda, badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz deyiladi. Obraz (timsol) tushunchasining 2 xil: keng va tor ma'nolari mavjud. Keng ma'nodagi obraz tushunchasi ijodkorning shaxsiy fikrlari bilan boyitilgan hayot manzarasi tasvirini ko'rsatadi. Tor ma'noda esa badiiy asarda yaratilgan qahramon siymosini ifodalaydi. Bundan tashqari, obrazlar asarda qatnashish holatiga ko'ra, bosh va epizodik turlarga bo'linadi. Dunyo adabiyotshunosligida obraz yaratishning mushtarak va farqli jihatlarini, o'zaro mos turlarini qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazardan o'rganib, tipologik va spetsifik belgilarini aniqlashga hamisha katta e'tibor bilan yondashilgan. Bu jihatdan ingliz adabiyotida Rozamunda Pilcher, Ivlin Vo asarlarida va o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy, Oybek, Cho'lponlarning ijodida "xizmatkor" obrazi milliylik asosida ifoda etilsa-da, aksariyatining kelib chiqishi, tasvir va talqinda o'xshashlik borligi, vazifadoshligi ularga xos umumiy va xususiy belgilarni lingvopoetik aspektda aniqlash zarurligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Respublikamizda o'zbek adabiyotining ingliz va G'arb adabiyoti bilan mushtarak jihatlarini o'rganish, badiiy matnda obrazlilik masalalarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan asarlar ko'p bo'lishiga qaramasdan, diaxronik asosda lingvopoetik tahlil parametrlari va toifalari asosida qahramon obrazini talqin qilishda adabiy tanqid va to'g'ri lingvistik yondashuvlar kesishuvini o'rganish zarurati mavjudligi tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TAHLIL.

Jahon adabiyotshunosligidan F.Dawes, B.Hill, P.Horn, F.Hugget, G.Leyech, T.May, Ch.Hibbert va boshqalarning tadqiqotlari nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Rus adabiyotshunosligida S.Sh.Akanayeva, E.B.Borisova, P.P.Gaydenko, I.M.Drobisheva, T.A.Ivushkina, A.V.Protchenko kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlari bu jihatdan e'tiborga molik.

O'zbek adabiyotshunosligida T.Boboyev, H.Boltaboyev, H.Umurov, B.Valixojayev, I.Sulton, T.Mirzayev, N.Mo'minova, D.O'rayeva kabi olimlar ham bu xususida ayrim mulohazalar bildirib o'tilgan. Biroq bu tadqiqotlar o'zbek adabiyotida xizmatkor obrazi tahlilini boshqa xalqlar adabiyoti bilan qiyosiy tahliliga bag'ishlangan emas. Shundan kelib chiqib, o'zbek va ingliz adabiyotida "xizmatkor" obrazi tahliliga bag'ishlangan ilk tadqiqotlardan ekanligi mavzuning dolzarbligini ta'minlaydi.

MUHOKAMA.

Obrazda obyektiv anglash bilan subyektiv ijodiy tafakkur qorishib ketadi. Badiiy obrazning o'ziga xos xususiyatlari real voqelikka va fikrlash jarayoniga bo'lgan munosabatda aniq namoyon bo'ladi. Obraz voqelikning badiiy in'ikosi sifatida real mavjud ob'jektning hissiy aniq, zamon va makonda davom etgan, moddiy tugal, o'zicha yetuk xususiyatlariga ega bo'ladi^[1].

Badiiy obrazning adabiyotshunoslikning muhim nazariy masalalaridan biri sifatida turlarga ajratilishi miloddan avvalgi 384-322 yillarda qadimgi yunon olimi Aristotelga borib taqaladi, u (Arastu) o'zining "Poetika" nomli asarida obrazlarni epik, lirik va dramatik turlarga ajratgan. Aristotel fikricha, adabiyot va san'at tabiatga "taqlid qilish"dir va bu uch xil usulda: 1) o'zidan tashqaridagi narsa to'g'risida hikoya qilayotgandek (epik); 2) taqlidchi o'z holicha qolgan, qiyofasini o'zgartirmagan holda (lirik) va 3) tasvirlanayotgan kishilarni faol harakatda taqdim etgan holda taqlid qilish mumkin (dramatik), deb bilgan. Bu turlarga ajratish masalasi 18-asrgacha davom etgan bo'lsa, bu asrda nemis olimi Hegel badiiy adabiyotni turlarga ajratishda tasvir perimetri asos qilib oldi: epos - voqeani, lirika - ruhiy kechinmani, drama - harakatni

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Obraz>

tasvirlaydi. Keyinroq, XIX asrda kelib esa rus olimi V.G.Belinskiy ham Gegel an'anasini davom ettirgan holda asardagi ob'yekt (voqelik) va sub'yekt (ijodkor) munosabatiga e'tibor qaratdi, unga ko'ra: eposda obyektivlik, lirikada subyektivlik, dramada ikkisinin aralashmasi kuzatilishini ta'kidladi. Rus olimi Belinskiyning fikricha, epik asar muallifi "o'z-o'zicha amalga oshgan narsaning oddiy hikoyachisi" maqomida turishini, lirikani "subyektiv poeziya" deganida esa "unda ijodkor shaxsiyatining birinchi planda turishi va barcha narsa uning shaxsiyati orqali qabul qilinishi va anglanishi"ni nazarda tutadi. Epos "obyektiv poeziya" sifatida faqat o'quvchi nazdidagina "obyektivlik" illyuziyasini xosil qilishi mumkin, aslida esa epik asar ham sub'yektiv fikrga ega.

Barcha adabiy turlarning o'ziga xosliklari bo'lganidek, lirik asarlarning asosan she'riy yo'l bilan, ko'pchilik epik asarlar nasriy yo'l bilan yozilishi kabi xususiyatlari mavjud. Gegel taklif etgan tasvir predmetidan kelib chiqqan holda turlarga ajratish tamoyili hozircha eng maqbuli ko'rinadi. Ya'ni, biz badiiy asarlarni turlarga ajratishda asarda aniq tasvirdan xulosaga kelamiz: dramatik asarda harakat, lirik asarda kechinmalar, epik asarda voqelik tasvirlanadi. Lirikada sub'yektning noplastik obrazi, aksincha dramada ob'yektning plastik obrazi, eposda esa ob'yekt va sub'yektning aralashma obrazi yaratiladi. Lirik asarning yetakchi obrazi lirik qahramon hisoblanadi. Lirik asar o'qiganda lirik qahramon holatini, kayfiyatini, kechinmalarning qanday holatda yuzaga kelganligini, uning his kechinmalariga turtki bo'lgan voqelik fragmentlarini his qilishimiz, tasavvur qilishimiz mumkin.

Dramada ob'yektning plastik obrazi mavjud bo'lib, qahramonlar real xatti-harakatda bo'ladilar, ularni jonli inson sifatida ko'rsatiladi. Ayni paytda, dramada sub'yekt mavjud emas, eposda esa bu ikkisiga xos xususiyat qorishiq: so'z bilan tasvirlangan badiiy voqelikni hayolda jonlantirish mumkin, ayni paytda, unda muallif obrazi ham mavjud. Epik asardagi muallif obrazi xuddi lirik asardagidek noplastik obraz, uning voqea-hodisalarga munosabati, kayfiyati, fikrlarini va harakatlarini sezamiz, muallif obrazi personajlar obrazi kabi jonli inson sifatida gavdalanmaydi. Adabiy turlarga

ajratishning belgilovchi prinsipini aniqlab olgach, endi har bir adabiy turga mansub asarlarga ko‘proq xos bo‘lgan xususiyatlar haqida ham to‘xtalish mumkin.

Badiiy obrazda shartlilik, ramziylik xususiyati mavjud va asarning ichki “illyuziyali” olamini tashkil qiladi. Obraz voqelikning oddiy in’ikosi bo‘lib qolmay, uni umumlashtirib, o‘tkinchi, tasodifiy hodisaning eng mohiyatli, o‘zgarmas, adabiy jihatlarini ochib beradi. Mavhum tushunchadan farqli ravishda obraz ko‘rgazmalilik xususiyatini namoyon etadi, u voqealarni mavhum mulohazalar bilan emas, balki hissiy yaxlit, butun bir takrorlanmas tarzda aks ettiradi. Obrazning badiiyligi mavjud voqelikni aks ettirish va uni anglash xususiyati bilan belgilanmaydi, balki badiiylik obrazning yangi o‘ylab chiqarilgan dunyo yarata olish imkoniyatida yuzaga chiqadi. Badiiy obrazda xayolot, bo‘yoq, tovush, so‘z va boshqalarni ijodiy ishlash yo‘li bilan san’at asari yaratiladi^[2]. Obraz murakkab tuzilish va murakkab ko‘rinishga ega; u borliq bilan ruhiy dunyoning barcha qorishiq daqiqalarni o‘z ichiga oladi. Badiiy obraz vositasida sub’yektivlik bilan ob’yektivlikning, yakka holat bilan umumiylikning, ideallik bilan reallikning o‘zaro muvofiq munosabatlari ijodiy ishlab chiqiladi. Badiiy obrazning muhim vazifasi uning hayotdagidek salmoqdorlik, yaxlitlik va jonlilikka ega bo‘lishidir.

Obraz tushunchasi - ma'lum g‘oyaning hissiy tasavvuridir. Badiiy asarda obrazlar chinakam empirik hissiyotli ob'yektlar deb ataladi va qabul qilinadi. Yozuvchilar asarlarida obraz yordamida dunyo suratini va odamni ifodalashadi. Obrazning badiiyligi uning estetik maqsadida joylashgan bo‘ladi. U tabiatning, hayvonot olamining, odamning, shaxslararo aloqaning chiroyini aks ettiradi^[3].

Xulosa.

Badiiy obrazning tabiatini o‘rganishga doir XX asr va undan keyingi davrlarning ayrim olimlari yondashuvlari turlicha. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek adabiy tanqidchiligida 1920-yillardan boshlab adabiyotdagi badiiy obrazni sof nutq hodisasi, badiiy asarlar tilining mulki

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Obraz>

³ Қаршибаева Улжон Давировна. Бадий образ тушунчаси ва XIX-XX аср адабиётида К.Дойл ижоди. Хорижий филология журнали. <http://samxorfil.uz/yangiliklar/badiiy-obraz-tushunchasi-va-xix-xx-asr-adabiyotida-kdoyl-ijodi>

sifatida ikki xil talqin qilish mavjud. Boshqalar esa badiiy obrazda murakkabroq hodisani – badiiy asar mazmunini o‘zida mujassam etgan, nafaqat tashqi, nutq shaklidagi detallarni, balki ichki, ob’yeckt-rasmiy va ritmik ekspressivlikni ham o‘zida mujassam etgan konkret hissiy detallar tizimini ko‘radi. XX asr boshlarigacha milliy adabiyotimizda “obraz” atamasi o‘rniga “tasvir”, “timsol”, “nusxa” kabilar qo‘llangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. ISLOMOV ELDOR YUSUPOVICH, AHMEDOVA MEHRINIGOR BAHODIROVNA. THE ESSENCE OF SPIRITUALITY IN THE UZBEK LANGUAGE. XIII МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ " ЯЗЫК И КУЛЬТУРА"Челябинск, 26 апреля 2018 года. -
2. Akhmedova Mekhrinigor Bahodirovna. “ANALYSIS AND DIFFERENT INTERPRETATIONS OF THE CONCEPT OF SPIRITUALITY”. Indonesian Journal of Innovation Studies, Vol. 18, May 2022, doi:10.21070/ijins.v18i.590.
3. Magdalena NGONGO, Akhmedova Mehrinigor. A Systemic Functional Linguistic Analysis of Clauses Relationship in Luke Gospel Text, Janji Baru Using Kupang Malay. Studies in Media and Communication Journal. Vol.11, 2023. - P. 33-40.
4. Fitria Nur Hasanah, Rahmania Sri Untari, Shofiyah Al Idrus, and Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Excel in Critical and Creative Thinking in Object-Oriented Programming. H. Ku et al. (Eds.): ICARSE 2022, ASSEHR 748, 2023. - P. 301–305.
5. Hazim Hazim, Ratih Puspita Anggraenni, Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. Altruistic Actions in COVID-19 Corpses Care: Empathy, Modeling, and More. International Conference on Advance Research in Social and Economic Science (ICARSE 2022), 2023/4/27. - P.476-484
6. Mansurovich, Sharipov Mamur. "The Problem of Intertextuality in Modern Literature." *Indonesian Journal of Innovation Studies* 18 (2022).

7. Mansurovich, Sharipov Mamur. "THE PROBLEM OF INTERTEXTUALITY IN MODERN LITERATURE." *ТИЛ, АДАБИЁТ, ТАРЖИМА, АДАБИЙ ТАҲҚИДЧИЛИК: ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР*: 194.

8. Mansurovich, Sharipov Mamur. "MODERNIST PROSE IN THE LIGHT OF INTERTEXTUALITY IN MODERN LITERARY CRITICISM." *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects* (2022): 238-239.

9. Sharipov, Ma'mur Mansurovich, and Zubaydullo Izomovich Rasulov. "THE

E

F

F

E

C

T

O

F

T

H

E

M

O

R

P

H

O

L

O

G

I

C